ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ashurov Ramzidin Ramazonovich** – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ashurov Ramzidin Ramazonovich –** Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness ..... 10
**Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich**

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
**Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich**

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar ..... 20
**Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li**

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari ..... 26
**Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi**

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati ..... 31
**Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna**

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi ..... 37
**Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi**

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida ..... 45
**Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li**

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish ..... 51
**Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich**

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi ..... 55
**Abdullayeva Mavluda Aribovna**

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar ..... 62
**Ablokulov Sherali Davronovich**

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi ..... 66
**Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li**

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati ..... 71
**Nasretdinova Feruza Nabiyevna**

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks ..... 75
**Nilufar Achilovna Tuxtayeva**

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach ..... 79
**Rakhimov Mansur**

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence ..... 83
**Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi**

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni ..... 89
**Sh. A. Nurmatova**

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma ..... 94
**Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi**

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli ..... 102
**Usmonova Dilnoza Muratovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка ..... 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv ..... 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish ..... 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish ..... 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari ..... 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ..... 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati ..... 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari ..... 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish ..... 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar ..... 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil ..... 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil ..... 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish ..... 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ..... 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi ..... 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish ..... 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash ..... 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari ..... 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ..... 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity ..... 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi ..... 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari ..... 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili ..... 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения ..... 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini ..... 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni ..... 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari ..... 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish ..... 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari ..... 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish ..... 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar ..... 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS ..... 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ..... 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod ..... 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari ..... 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель ..... 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari ..... 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца ..... 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari ..... 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari ..... 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati ..... 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
**Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
**Musayeva Ziyoda Allayarovna**

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
**Namozova Barno Navruzovna**

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida ..... 331
**Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich**

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
**Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva**

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ..... 343
**Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# LINGVOPOETIKADA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI XUSUSIDA NAZARIY QARASHLAR

Quvonchoy Yusupova
Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvopoetik tahlilning asosiy poydevori hisoblangan badiiy asarda shakl va mazmunning parchalanmas, organik birligi masalasi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda G'arb va rus ilmiy-nazariy qarashlari (V.Shklovskiy, K.Bruks, V.Odinsov) hamda Sharq mumtoz poetikasi va tasavvuf falsafasidagi (Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Atoulloh Husayniy, Ogahiy) zohir (surat/shakl) va botin (ma'no/mazmun) mutanosibligi qiyosiy-analitik yondashuv asosida yoritilgan.

Badiiy matnda shakl faqat mazmunga xizmat qiluvchi vosita emas, balki ba'zan semantik markazga aylanuvchi estetik hodisa ekani va bu ikki tushuncha o'rtasidagi dialektik birlik muallif badiiy konseptini ro'yobga chiqarishning zaruriy sharti hisoblanishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, shakl va mazmun, dialektik birlik, surat va ma'no, zohir va botin, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Atoulloh Husayniy, Ogahiy, estetik sig'im.

**Abstract:** This article theoretically examines the inseparable, organic unity of form and content in literary works, which forms the core foundation of linguopoetic analysis. Employing a comparative-analytical approach, the study explores Western and Russian theoretical perspectives (V. Shklovsky, C. Brooks, V. Odintsov) alongside Eastern classical poetics and Sufi philosophy (Alisher Navoi, Jalal ad-Din Rumi, Ataullah Husayni, Ogahi) regarding the balance between outer form (surat) and inner meaning (ma'no).

It is substantiated that form in a literary text is not merely a vehicle serving content, but an aesthetic phenomenon that can itself become the semantic center, and that the dialectical unity between form and content is an essential prerequisite for fully realizing the author's artistic concept.

**Key words:** linguopoetics, form and content, dialectical unity, form and meaning, manifest and latent, Alisher Navoi, Jalal ad-Din Rumi, Ataullah Husayni, Ogahi, aesthetic capacity.

**Аннотация:** В данной статье теоретически исследуется неразрывная органическая связь формы и содержания в художественном произведении, составляющая основу лингвопоэтического анализа. На основе сравнительно-аналитического подхода рассматриваются западные и русские теоретические концепции (В. Шкловский, К. Брукс, В. Одинцов), а также восточная классическая поэтика и суфийская философия (Алишер Навои, Джалаладдин Руми, Атауллах Хусейни, Огахи) в контексте соотношения внешнего (форма/образ) и внутреннего (смысл/содержание).

Обосновывается, что форма в художественном тексте выступает не просто средством передачи содержания, но и ключевым эстетическим явлением, а диалектическое единство формы и содержания является необходимым условием полной реализации авторского художественного концепта.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, форма и содержание, диалектическое единство, сурат и мано, внешнее и внутреннее, Алишер Навои, Джалаладдин Руми, Атауллах Хусейни, Огахи, эстетическая емкость.

## KIRISH

Lingvopoetik tahlilning poydevorini tashkil etuvchi asosiy postulat[1] bu - badiiy asardagi shakl va mazmunning parchalanmas, organik birligidir. Bu g'oya badiiy asarni estetik yaxlitlik sifatida tan olishni metodologik imperativ darajasiga ko'taradi. Unga ko'ra, badiiy matnda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, uni verbal ifodalovchi shakl ham shunchalik muhim ahamiyatga ega. Bunda gap shaklning mazmunga xizmat qiluvchi oddiy "jism" emasligi, balki ba'zan uning o'zi mazmun yetakchiligidagi badiiy niyat taqozosi bilan semantik markazga aylanuvchi hodisa ekanligidadir.

1 https://epistemology_of_science.academic.ru/802/ теоретической_лингвистики_постулаты

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bu konsepsiyaning ildizlari rus formal maktabi namoyandalarining ishlariga borib taqaladi.

Xususan, V.Shklovskiyning "san'at usul sifatida" ("искусство как прием") nazariyasi va undagi "остранение" (begonalashtirish) tushunchasi aynan shaklning avtomatizmni yengib, narsa-hodisalarni yangicha idrok ettirish funksiyasini birinchi planga olib chiqqan edi[2]. Anglo-amerika "yangi tanqidi" (New Criticism) maktabi vakillari ham, xususan K.Bruks, "parafraza vasvasasi" ("heresy of paraphrase") termini orqali badiiy asar mazmunini uning original shaklidan ajratib olib, boshqa so'zlar bilan ifodalash mumkin emasligini ta'kidlaganlar[3].

V.V.Odinsov ta'biri bilan aytganda, badiiy matndagi emotsional-badiiy struktura tabiiy-mantiqiy strukturalarni transformatsiya qiladi[4], bu esa o'z navbatida badiiy shaklning yuksak axboriy va estetik sig'imini ta'minlaydi. Shu bois, nasriy asarlarda ham shakliy komponentlarni (masalan, ritm, sintaktik qurilish) o'zgartirish matnning badiiy-estetik butunligiga putur yetkazish, uni destruksiyaga uchratish bilan barobardir. Demak, shakl va mazmun bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan dixotomik tushunchalar emas, balki bir-birini taqozo etuvchi, bir-biri orqali mavjud bo'lgan dialektik birlikdir. Ularning yashirin yoki oshkora muvofiqligi muallifning badiiy konseptini to'laqonli reallashtirishning zaruriy shartidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ayni haqiqat - shakl va mazmunning dixotomik qarama-qarshilik emas, balki dialektik birlik ekanligi, ularning muvofiqligi badiiy konseptning to'laqonli ro'yobga chiqishining zaruriy sharti ekani Sharq falsafiy-estetik tafakkurining markaziy tamoyillaridan biri sanaladi. Bu g'oya, ayniqsa, tasavvuf falsafasidagi zohir (tashqi, shakl) va botin (ichki, ma'no) birligi, vahdat ul-vujud (borliqning birligi) ta'limoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida shakl (lafz) va mazmun (ma'no) mutanosibligi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. "Surat muvofiqligi va ma'ni mutobiqligi" Alisher Navoiy uchun badiiy mahorat mezonlaridan sanalgan. Hazrat "Xazoyin ul-maoniy" debochasida quyidagilarni yozadi: "Sa'y qilindikim, har mazmunda matla'e voqi' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'g'acha surat xaysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay..."[5]

Ushbu fikrlar Alisher Navoiyning nafaqat buyuk shoir, balki o'tkir adabiyot nazariyotchisi ham bo'lganini isbotlovchi, uning butun ijodiy konsepsiyasini, poetik kredosini[6] o'zida mujassam etgan muhim dasturilamaldir. Bu jumlani lingvopoetika - til hodisalarining badiiy matndagi estetik vazifasini o'rganuvchi fan nuqtayi nazaridan tahlil qilish, Alisher Navoiy dahosining yana bir qirrasini ochib beradi. Jumlaning boshlanishidayoq shoir yozdim, aytdim kabi fe'llar o'rniga sa'y qildim (astoydil harakat qildim, intildim) fe'lini qo'llaydi. Bu so'z tanlovi she'riy ijod Navoiy uchun shunchaki ilhom mahsuli emas, balki jiddiy mehnat, ongli intilish, tinimsiz mashq va mashaqqatli riyozat ekanini ko'rsatadi. -kim bog'lovchsi esa fikrga izoh, dalillash, xulosaviy ta'kid ma'nolarini yuklab, jumlaning mantiqiy va rasmiy-ilmiy ohangini kuchaytiradi.

Mazmun, matla', maqta' atamalari bu fikrni shaxsiy, hissiy kechinma sifatida emas, balki mumtoz adabiyot qonuniyatlariga asoslangan umumiy, nazariy qoida sifatida taqdim etayotganini bildiradi. Bu uning shoirgina emas, balki she'riyatning mukammal bilimdoni, ustasi ekanini namoyon qiladi. Surat she'rning zohiriy, sezgi a'zolarimiz bilan idrok etiladigan tomoni. Unga nafaqat badiiy tasvir vositalari (tashbeh, istiora, mubolag'a), balki she'rning butun musiqiy-ohangdorlik tizimi - vazni (aruz), qofiyasi, radifi, so'z o'yinlari, umumiy kompozitsiyasi kiradi.

Ma'ni - she'rning botiniy, aql va qalb bilan anglashiladigan mohiyati, uning g'oyaviy-falsafiy mazmuni, lirik qahramonning ichki dunyosi, his-tuyg'ularidir. Muvofiq va mutobiq tushunchalari o'zaro o'ta nozik ma'no farqlari nazarda tutib ishlatilgan. Alisher Navoiyning ushbu birgina jumlasi uning butun ijodi uchun asos bo'lgan badiiy yaxlitlik (yakporalik) konsepsiyasini ifodalaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk so'fiy shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumiy uchun moddiy dunyo (surat, shakl) ilohiy ma'nolar (siyrat, ma'no) makonidir. Uning nazdida, shakl o'tkinchi, lekin ma'noga yetish uchun zaruriy vosita, ko'prikdir. Shaklga o'ralashib qolish halokat, ammo shaklni inkor etib, ma'noga erishib bo'lmaydi.

2 Шкловский В.Б. Искусство как прием // О теории прозы. – М.: Федерация, 1929. – С. 7-23.
3 Brooks, C. The Well Wrought Urn: Studies in the Structure of Poetry. – New York: Harcourt, Brace & World, 1947.
4 Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: Наука, 1980. – С. 161.
5 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 22.
6 Литературный энциклопедический словарь / Под ред. В. М. Кожевникова, П. А. Николаева. - М.: Советская энциклопедия, 1987. - 751 с.

ای برادر تو همان اندیشه‌ای مابقی تو استخوان و ریشه‌ای [7]

*Tarjimasi:* (keyingi ikki bayt bilan birgalikda) “Ey birodar, sen faqat andesha (fikr, ma’no)dan iboratsan, qolganing esa suyak va teridir. Agar andeshang gul bo‘lsa, sen gulshansan, agar tikan bo‘lsa, o‘tinga aylanasan... Biz suratparast emasmiz, biz ma’no istaymiz. Ammo ma’noni topish uchun suratga xizmat qilish lozim”.

Jaloliddin Rumiy insonning mohiyatini uning fikri, ya’ni ichki mazmuni bilan belgilaydi. Biroq uning ikkinchi jumlasi bizning mavzumiz uchun ayniqsa muhim: “ma’noni topish uchun suratga xizmat qilish lozim”. Ya’ni, tana (surat) ruh (ma’no) uchun makon bo‘lganidek, so‘z va she’riy shakl ham ilohiy ma’nolarning jilolanishi uchun zaruriy vositadir. Uning mashhur “Masnaviy”si ham aynan hikoyalar (shakl) orqali chuqur irfoniy ma’nolarni ochib berishga qurilgan. Darhaqiqat, tasavvufda surat صورت istilohi zohiriy shakl, tashqi ko‘rinish, jismoniy olam va har qanday narsaning moddiy ifodasini anglatadi. U ko‘pincha haqiqiy mohiyatni, ya’ni ma’noni yashirib turuvchi parda yoki qobiq sifatida qaraladi. Solik (haqiqat yo‘liga kirgan shaxs) uchun surat o‘tish kerak bo‘lgan to‘siqdir.

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sidagi quyidagi baytda bu g‘oya yaqqol ifodalangan:

تا به بینی زیر آن وحدت به گنج
صورت سرکش گدازان کن برنج

*Tarjimasi:* “Isyonkor suratni azob bilan eritgil, toki uning ostidagi birlik xazinasini ko‘rgaysan”[8].

Ma’no istilohi esa suratning aksi o‘laroq, ichki mohiyat, botiniy haqiqat, asl mazmun va ruhoniy olamni ifodalaydi. Bu zohiriy shakllar ortida yashiringan va orifning asosiy maqsadi bo‘lgan ilohiy haqiqatdir. Irfoniy tafakkurga ko‘ra, barcha zohiriy shakllar (suratlar) o‘z-o‘zicha mavjud emas, balki ular ichki ma’noning tajallisi yoki ifodasidir. Solikning vazifasi suratga aldanib qolmasdan, uning ortidagi ma’noga yetishishdir. Jaloliddin Rumiy fikricha, ma’nolar olamida bo‘linish va sanoq yo‘q, u yerda hamma narsa birlashadi:

در معانی قسمت و اعداد نیست
در معانی تجزیه و افراد نیست

Tarjimasi: “Ma’nolarda qismat va sanoqlar yo‘qdir, ma’nolarda bo‘laklanish va ajralish yo‘qdir”[9].

Sharq poetikasiga oid muhim asar “Badoye’u-s-sanoye’” muqaddimasida muallif Atoulloh Husayniy o‘zini tanishtirar ekan, quyidagi baytni keltiradi:

*Kamina banda-yi ma’bud-i ma’niy*
*Atoulloh Mahmudu-l-Husayniy*

Bu o‘rindagi banda-yi ma’bud-i ma’niy iborasi o‘zbek tiliga “ma’no sanami (ilohi)ning quli” deb o‘giriladi. Bu shunchaki bir shoirona tashbeh emas, balki muallifning butun ijodiy e’tiqodini ifodalovchi chuqur falsafiy formula hisoblanadi10. Ma’no tushunchasi bu o‘rinda ma’bud, ya’ni sig‘iniladigan, ibodat qilinadigan iloh darajasiga ko‘tarilmoqda. Muallif esa o‘zini o‘sha ilohning sodiq “bandasi”, ya’ni quli sifatida taqdim etadi. Bu bilan u o‘z ijodi va butun ilmining asosiy maqsadi shakliy jilvalar yaratish emas, balki yuksak ma’nolarga xizmat qilish ekanini ta’kidlaydi. Bu, Sharq tafakkuridagi botin (ichki mohiyat, ma’no) zohirdan (tashqi ko‘rinish, shakl) ustun turishi haqidagi tasavvufiy qarashlar bilan hamohangdir. Muallif uchun badiiy asarning asl qadriyati uning mazmunida, chuqur ma’nosidadir.

Atoulloh Husayniy asarning kirish qismi (“Tamhid”)da nutq go‘zalliklarini ikki katta guruhga ajratadi va bu bilan shakl va ma’no munosabatiga oid o‘z nazariy asosini yaratadi:

1. **Zotiy go‘zalliklar.** Buni muallif “dilbarlarning tabiiy husni yanglig‘dur” deya ta’riflaydi. Bu turga u ma’oniy (ma’nolar) va bayon (ifoda) ilmlarini kiritadi, ya’ni asarning asl, tabiiy go‘zalligi uning chuqur mazmuni va o‘sha mazmunning aniq, ravon ifodasidadir.
2. **Oriziy go‘zalliklar.** Buni esa “ko‘rsatma bezaklar singaridur” deya izohlaydi va bu turga badi’ ilmini (badiiy san’atlar) kiritadi. Ya’ni, tajnis, tarsi’, tazod kabi badiiy san’atlar asarning asl go‘zalligiga qo‘shimcha ziynat, bezak vazifasini o‘taydi.

7 https://ganjoor.net/moulavi/fhmfh/sh52
8 https://didarejan.com/ شرح-و-تفسیر-طلب-کردن-امت-عیسی-،-ولیعهد
9 Сажжодий, Саййид Жаъфар. Фарҳанг-и истелоҳот ва таъбирот-и ирфони. – Теҳрон: Таҳури, 1370. – С. 70, 75, 76, 77.
10 Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадодойиъу-с-санойиъ. Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 8.



MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Bu tasnif orqali Husayniy ma'no va shakl o'rtasidagi ierarxiyani aniq belgilab beradi. Ma'no (zotiy go'zallik) birlamchi, asosiydir. Badiiy san'atlar esa (oriziy go'zallik, ya'ni shakl) ikkilamchi bo'lib, birinchisining ta'sirini oshirishga xizmat qilishi kerak. Demak, shakl o'zi uchun emas, balki ma'no uchun mavjuddir.

Atoulloh Husayniy "Lafziy go'zalliklar" bobini boshlar ekan, badiiy ijodning eng asosiy tamoyilini quyidagicha bayon qiladi: "...lafziy go'zalliklarning asosi uldurkim, alfozni ma'nog'a tobi' qilg'aylar...". Bu fikrni yanada kuchaytirib, u ikkita katta xatodan ogohlantiradi: "Asos ul emaskim alfozg'a husnu ziynat bermakka say' qilg'aylaru ma'nog'a xalal yetur holdin ko'z yumg'aylar yoxud aksincha xolis ma'no bayon etib, husn-i ado tariqig'a yo'lamag'aylar".

Bu o'rinda Atoulloh Husayniy shakl va ma'no birligining mukammal dialektikasini ifodalamoqda. Uning "oltin qoidasi" - so'z (shakl) ma'noga tobe bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u ikkita keskin holatni inkor etadi:

1) ma'noga zarar yetkazish hisobiga so'zga zeb berish, ya'ni shaklning ma'nodan ustun qo'yilishi;

2) shaklga, ya'ni husn-i adoga (go'zal ijroga) e'tibor bermay, faqat xolis ma'noni bayon qilish.

Demak, Husayniy nazariyasiga ko'ra, mukammal badiiy asar - bu yuksak ma'noning o'ziga munosib go'zal shaklda ifodalanishidir. Shakl ma'noni bo'g'ib qo'ymasligi, ma'no esa shaklning badiiy jozibasidan mahrum bo'lmasligi kerak.

Surat va shakl borasidagi mulohazalarni "Riyozu-d-davla"ning o'zida ham uchratamiz. Ogahiy koinotning yaratilishini ta'riflab, "sipehri nilgunning ayvoni rif'atbunyoni aning binoyi san'atidin mutarrah va rub'i maskunning fazoyi vus'atnishoni aning me'mori qudratidin musattahdur"[11]. der ekan, osmon gumbazi va yer yuzi kabi moddiy suratlar Allohning san'ati va qudrati (ma'no) bilan vujudga kelganiga ishora qilinadi. Muallif bu mavzuni yanada chuqurlashtirib, Sharq falsafasidagi asosiy tushunchalardan bo'lgan hayulo (ilk modda, materiya) va suvrat (shakl, forma) atamalarini qo'llaydi: "hayulo-u suvrat hikmati ummonidin bir name" (RD, 246a), ya'ni butun moddiy borliq va uning shakllari Alloh hikmati ummonidan bir tomchi, xolos. Bu o'rinda hikmat ummoni botiniy ma'noni, hayulo-u suvrat esa uning zohiriy ko'rinishini anglatadi.

Ogahiy asarning munojot qismida o'z ijodiy jarayoniga to'xtalib, aynan shakl va mazmun mutanosibligi haqida so'z yuritadi va bu borada o'zining ojizligini tan olib, Allohdan madad so'raydi. Muallif o'z asarini ta'riflar ekan, uning satrlarini suvrat deb ataydi va bu surat xayoldan iborat ekanini aytadi: "...bu avroqi gulistoninsho tarkibining suturi suvratig'akim, tori xayoldur, jur'at qalamin surubmen..." (RD, 246a). Bunda Ogahiy o'z fikrlarini (ma'noni) qog'ozdagi satrlar (surat) orqali ifodalayotganini, bu shakl esa xayolning nozik iplaridan to'qilganini e'tirof etadi.

Shuningdek, muarrix o'z munojotida Yaratgandan so'zlaridagi shakliy kamchiliklarni ilohiy inoyat bilan yuksak ma'noga munosib holga keltirishini so'raydi: "Har iborati noshoyistakim, suturi sahoyifg'a mastur etibmen, aybin hunar ko'rguzub, xaloyiq tahsinig'a sazovor et va har xazfrezayi noboyistakim, har nazm rishtasig'a chekibmen, e'tibor silkig'a kirguzib, el ko'zig'a gavhari serobdek namudor et!" (RD, 246a) Bu o'rinda iborati noshoyista (nomunosib ibora) va xazfrezayi noboyista (arzimas parcha) kabi shakliy kamchiliklarni Allohning lutfi bilan "hunar" va "gavhari serob" (suvli gavhar) kabi yuksak darajaga ko'tarishini o'tinadi. Bu muallifning shakl va mazmun uyg'unligiga intilishining yorqin ifodasidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'kidlanganidek, Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiy-estetik tafakkurining markaziy muammosi, uning butun nazariy poydevorini tashkil etgan asosiy tamoyil - bu shakl va ma'no o'rtasidagi dialektik munosabat masalasidir. G'arb va ayrim arab olimlari orasida ajam xalqlari, jumladan turkiy tillar poetikasi (ilm al-badi') arab va fors badiiy tafakkurining soyasida rivojlangan, uning nusxasi yoki oddiy tarjimasi degan qarash keng tarqalgan bo'lsa-da[12], bu masalaga tanqidiy yondashuv mazkur ikki buyuk adabiy an'ana o'rtasida jiddiy tafovutlar (mumayyizat مُمَيِّزَات, badiiy san'atlardagi yangiliklar, terminologik o'zgarishlar (tasarrufat) va hatto arab poetikasida uchramaydigan istisnolar mavjudligini ko'rsatadi.

O'rta asrlarning o'zidayoq Muhammad Umar ar-Roduyoniy, Rashididdin Vatvot, Shamsi Qays Roziy, Atoulloh Mahmud Husayniy kabi nazariyotchilar shakl va ma'no mutanosibligini har bir adabiy an'anada o'ziga xos tarzda talqin qilganlar.

Sharq filologiyasida shakl va ma'no masalasi balog'at ilmi doirasida o'rganilgan. Bu ilm so'zni nafaqat to'g'ri (fasohat), balki o'rinli, ta'sirchan va go'zal (balog'at) ifodalash qonuniyatlarini qamrab olgan. XII asrda yashagan xorazmlik buyuk tilshunos va nazariyotchi olim Sirojiddin Sakkokiy o'zining "Miftohu-l-ulum" ("Ilmlar kaliti") asarida balog'at ilmini uch asosiy qismga ajratib, uning nazariy asoslarini mukammal tizimga soldi. Bu tizim shakl va ma'no munosabatini anglash uchun poydevor vazifasini o'taydi.

11 Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozu-d-davla (Davlat bog'lari): O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, 5364/II-inv. raqamli qo'lyozma. – B. 246a. Ushbu asardan olingan keyingi parchalarda manba qavs ichida ko'rsatiladi.

12 Юсупов У.К. Взаимовлияние поэтики Араба и Аджама (IX-XV вв.): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 3.

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetik yondashuv badiiy matnning har bir shakliy komponenti (ritm, sintaktik qurilish, so‘z qo‘llash, badiiy san’atlar) chuqur axboriy va estetik sig‘imga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shakl va mazmunning o‘zaro muvofiqligi va yaxlitligi saqlangandagina muallifning badiiy-falsafiy konsepti to‘liq ro‘yobga chiqadi va matn yuksak estetik qimmat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Brooks, C. The Well Wrought Urn: Studies in the Structure of Poetry. - New York: Harcourt, Brace & World, 1947.
2. Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozu-d-davla (Davlat bog‘lari): O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, 5364/II-inv. raqamli qo‘lyozma. - B. 246a. Ushbu asardan olingan keyingi parchalarda manba qavs ichida ko‘rsatiladi.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. - Тошкент: Фан, 1987. - Б. 22.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадодойиъу-с-санойиъ. Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. - Б. 8.
5. Литературный энциклопедический словарь/Под ред. В. М. Кожевникова, П. А. Николаева. - М.: Советская энциклопедия, 1987. - 751 с.
6. Одинцов В.В. Стилистика текста. - М.: Наука, 1980. - С. 161.
7. Сажжодий, Саййид Жаъфар. Фарҳанг-и истелоҳот ва таъбирот-и ирфони. - Теҳрон: Таҳури, 1370. - С. 70, 75, 76, 77.
8. Шкловский В.Б. Искусство как прием // О теории прозы. - М.: Федерация, 1929. - С. 7-23.
9. Юсупов У.К. Взаимовлияние поэтики Араба и Аджама (IX-XV вв.): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Душанбе, 2016. – С. 3.
10. https://didarejan.com/ شرح-و-تفسیر-طلب-کردن-امت-عیسی-،-ولیعهد
11. https://epistemology-of-science.academic.ru/802/ теоретической-лингвистики-постулаты
12. https://ganjoor.net/moulavi/fhmfh/sh52

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №10(4)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.